O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ 301

2022 yil "25" 08

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Bozorov O.N.
"___" ________ 2022 yil

# *AMALIY AUDIT*

*fanining*

## *SILLABUSI*

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 400000 | - | Biznes, boshqaruv va huquq |
| **Ta'lim sohasi:** | 410000 | - | Biznes va boshqaruv |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 70410102 | - | Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |

**Qarshi – 2022 yil**

Fanning sillabusi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashi tomonidan 2022 yil "28" 06 da 11 -sonli yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzildi.

**Tuzuvchi:** **Jumayeva G.** "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Fanning sillabusi "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasining 2022 yil 24.08 dagi 01 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti uslubiy komissiyasiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri** ____________ **A.Alikulov**

Fanning sillabusi "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida (bayon № 01 24.08 2022 y.) va institut Uslubiy Kengashida (bayon № 01 29.08 2022 y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i ____________ **Turdiyev Sh.**

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi ____________ **Qurbonov A.**



Scanned with CamScanner

**Fan sillabusi**
**Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti**

**Fan to'g'risida ma'lumot**
**Fan shifri: SS** 336 PRAD 1 8 1.03
**Fan nomi:** Amaliy audit
**Semestr/ yil: 2-**3 semestr/2022-2023 o'quv yili
**Kafedra:** Buxgalteriya hisobi va audit
**Soatlar/kreditlar miqdori:** ECTS – Kreditlar 8 (4/4)

| **Fan/modul kodi** 336 PRAD 1 8 1.03 | | **O'quv yili** 2022-2023 | **Semestr** 2-3 | **ECTS – Kreditlar** 8 (4/4) | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi** Majburiy | | **Ta'lim tili** O'zbek | | **Haftadagi dars soatlari** 4 | |
| **1.** | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Amaliy audit | 120 | | 120 | 240 |
| | Shundan:<br>2-semestrda ma'ruza:<br>amaliy mashg'ulot: | 30<br>30 | | 30<br>30 | 60<br>60 |
| | Shundan:<br>3-semestrda ma'ruza:<br>amaliy mashg'ulot: | 30<br>30 | | 30<br>30 | 60<br>60 |

**Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:**
**Auditoriya vaqti:** Dars jadvaliga asosan
**Magistrantlar:**
**Fan uchun mas'ul kafedra:** Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi
**Instruktor to'g'risida ma'lumot**
**Instruktor:** Jumayeva Gulrux
**Kafedra joylashgan joyi:** QarMII, 8-o'quv binosi, 202-xona
**Telefon:** 97 2945510 ish telefoni
**E-mail:** gulruh.jumayeva.68@mail.ru
**Ish vaqti:** Belgilangan vaqt oralig'ida

**I.Fanning tavsifi**

Amaliy audit fani 70410102-Audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistratura mutaxassisligida 2-3-semestrlarda o'qitiladi. Ushbu dasturda raqobatdosh iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik-moliya-tijorat faoliyatini samarali boshqarish, hisob-kitob tizimining to'g'ri, o'z vaqtida yuritilishini tashkil etishda amaliy auditning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari aks etgan. Magistrantlarning mazkur fanni chuqur o'rganishi xo'jalik jarayonlarida bo'layotgan operatsiyalarni o'z vaqtida to'liq hujjatlashtirilishi, hisobga olinishi va hisobotlarda to'g'ri ifodalanishini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, amaliy auditni amalda qo'llay olishga o'rgatadi. Fan dasturidagi masalalar turli tadbirkorlik subyektlari moliyaviy munosabatlaridagi tahliliy xulosalarni tayyorlashdagi uslubiy jihatlariga ham mos tushadi.



Scanned with CamScanner

**II. Fanning maqsadi**

"Amaliy audit" fanining asosiy maqsadi-auditning xalqaro standartlari asosida amaliy auditnitashkil qilish, turli mulkchilik sharoitida aktivlar, majburiyatlar va mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish bilan bog'liq muomalalar auditi hamda xususiy kapital shakllanishi bilan bog'liq operatsiyalar auditini o'tkazish, innovatsion audit xizmati dasturlari tizimida audit o'tkazish xususida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi-talabalarga O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy integratsiyalashuvi sharoitida iqtisodiy nazorat tizimi va uni takomillashtirish muammolari, aktivlar, majburiyatlar va mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish bilan bog'liq muomalalar auditi hamda xususiy kapital shakllanishi bilan bog'liq operatsiyalar auditini o'tkazish, shuningdek, auditorlik tanlovlari, ushlab chiqarish bosqichi auditini tashkil qilish, yuridik va jismoniy shaxslarga sotish va tushum bosqichi auditi masalalalrini o'rgatishdan iborat.

**III. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant:

- Amaliy audit tushunchasi va asoslari, rivojlanish omillari, iqtisodiy rivojlanish nazariyalari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;
- Amaliy auditning rivojlanishini, asosiy tushunchalar, rivojlanish qonunlari, auditning xalqaro standartlari jarayonlarini bilish va ulardan foydalanish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;

Amaliy auditning zamonaviy uslubiyotini qo'llash, rivojlanish muammolari bo'yicha yechimlar qabul qilish malakasiga ***ega bo'lishi kerak.***

**IV. Ta'lim berish shakllari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- amaliyotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni tayyorlash;
- individual loyihalar;

jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**V. Fanning tarkibiy tushilishi**

| DARS | Mavzul ar | Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar rejasi | Soat | |
|---|---|---|---|---|
| | | | Ma'ruza | Amaliy |
| 1. | O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimi va unda auditning tutgan o'rni | 1. «Amaliy audit» fanining predmeti, obyektlari va funksiyalari hamda boshqa fanlar bilan aloqasi.<br>2. Davlat nazoratining tashkiliy tuzilmasi.<br>3. Iqtisodiy nazorat tizimida tashqi audit.<br>4. Moliyaviy nazorat tizimi.<br>5. Davlat moliya nazoratini darajalar bo'yicha qayta tashkil qilish masalalari va ularni hal etish yo'llari. | 2 | 2 |
| 2 | | 1. Hukumat organlari miqyosida moliyaviy nazoratni takomillashtirish.<br>2. Moliyaviy hisobot auditi hamda operatsion auditni takomillashtirishda davlatning o'rni. | 2 | 2 |



Scanned with CamScanner

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 3. | Asosiy vositalar harakati bilan bog'liq muomalalar auditi uslubiy muammolari | 1. Asosiy vositalar auditiga doir xalqaro va milliy normativ hujjatlar.<br>2. Tekshiruv maqsadi va vazifalari.<br>3. Tekshiruv uchun axborot manbalari. | 2 | 2 |
| 4. | | 4. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur, auditorlik amallari.<br>5. Asosiy vositalar harakati bilan bog'liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti.<br>6. Asosiy vositalar amaliy auditida odatiy bo'lgan ayrim xatoliklarlarni tuzatish. | 2 | 2 |
| 5. | Nomoddiy aktivlar harakati bilan bog'liq muomalalar auditi uslubiy muammolari | 1. Nomoddiy aktivlar auditiga doir xalqaro va milliy normativ hujjatlar.<br>2. Tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari.<br>3. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur, auditorlik amallari.<br>4. Nomoddiy aktivlar harakati bilan bog'liq muomalalar auditinining uslubiyoti.<br>5. Nomoddiy aktivlar auditining natijalarini umumlashtirish va mavjud bo'lgan ayrim xatoliklarni tuzatish. | 2 | 2 |
| 6. | Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar auditi uslubiyning muammolari | 1. Uzoq muddatli investitsiyalar bilan bog'liq muomalalar auditining asosiy normativ hujjatlari.<br>2. Tekshiruv maqsadi va vazifalari. Tekshiruv uchun axborot manbalari.<br>3. Auditorlik tekshiruvi rejasi va umumiy dasturi, auditorlik amallari. | 2 | 2 |
| 7. | | 4. Uzoq muddatli investitsiyalar bilan bog'liq muomalalarni tekshirish uslubiyoti.<br>5. Aktivlarni moliyaviy investitsiyalar tarkibiga kiritish operatsiyalari to'g'riligini tekshirish.<br>6. Moliyaviy investitsiyalar harakati bilan bog'liq muomalalar umumlashtirilishi va hujjatlashtirilishini tekshirish. | 2 | 2 |
| 8. | Tovar-moddiy zaxiralari harakati bilan bog'liq muomalalar auditining uslubiy muammolari | 1.Tovar-moddiy zaxiralar auditining asosiy meyoriy hujjatlari hamda tekshiruv maqsadi va vazifalari. 2.Tekshiruv uchun axborot manbalari.<br>3.Tovar-moddiy zaxiralar harakati bilan bog'liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. | 2 | 2 |
| 9. | | 4. Tovar-moddiy zaxiralari bilan bog'liq boshqa muomalalar auditi.<br>5. Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasi tartibi, sifati va to'liqliligini tekshirish. | 2 | 2 |
| 10. | Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog'liq muomalalar auditining uslubiy muammolari | 1. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish bilan bog'liq muomalalar auditining asosiy normativ hujjatlari.<br>2. Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari hamda axborot manbalari.<br>3. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur.<br>4. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog'liq muomalalarni tekshirish uslubiyoti. | 2 | 2 |
| 11. | | 5. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog'liq muomilalarni moliyaviy hisobi amaliyotida mavjud bo'ladigan ayrim xatoliklar.<br>6. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar auditi.<br>7. Davr xarajatlari auditi. | 2 | 2 |



Scanned with CamScanner

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 12. | Xodimlar bilan mehnatga xaq to'lash bo'yicha muomalalari auditining uslubiyoti | 1. Xodimlar bilan mehnatga xaq to'lash bo'yicha asosiy normativ hujjatlar. 2. Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. 3. Audit tekshiruvi axborot manbalari. | 2 | 2 |
| 13. | | 4. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. 5. Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha muomalalarni tekshirish uslubiyoti. 6. Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo'ladigan ayrim xatoliklar. | 2 | 2 |
| 14. | Pul mablag'lari harakati bilan bog'liq muomalalar auditining uslubiyoti | 1. Pul mablag'lari muomalalari auditining asosiy qonun va meyoriy hujjatlar. 2. Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. 3. Tekshiruv uchun axborot manbalari. | 2 | 2 |
| 15. | | 4. Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. 5. Pul mablag'lari harakati bilan bog'liq muomalalarni tekshirish uslubiyoti. 6. Pul mablag'lari moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo'ladigan ayrim xatoliklar. | 2 | 2 |
| **2-semestr buyicha JAMI** | | | 30 | 30 |
| | **3-semestr** | | | |
| 16. | Hisob-kitob, kredit va boshqa qarzlar bo'yicha muomalalar auditining uslubiyoti | 1.Hisoblashishlar bo'yicha asosiy normativ hujjatlar. tekshiruv maqsadi va vazifalari. 2.Tekshiruv uchun axborot manbalari. 3.Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur, auditorlik amallari. | 2 | 2 |
| 17. | | 4.Hisob-kitob, kredit va boshqa qarzlar bilan bog'liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti. 5.Hisob-kitob, kredit va boshqa qarzlar moliyaviy hisob amaliyotida mavjud bo'ladigan ayrim xatoliklar. | 2 | 2 |
| 18. | Xususiy kapital auditining uslubiy muammolari | 1.Xususiy kapital auditining asosiy qonun va meyoriy hujjatlar. 2.Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari. 3.Tekshiruv uchun axborot manbalari. | 2 | 2 |
| 19. | | 4.Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. 5.Korxona ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali harakati bilan bog'liq muomalalarni tekshirish uslubiyoti. 6.Xususiy kapitalning moliyaviy hisobi amaliyotida mavjud bo'ladigan ayrim xatoliklar. | 2 | 2 |
| 20. | Eksport-import va valyuta muomalalari auditi | 1.Eksport muomalalari auditining maqsadi, vazifalari va manbalari. .2.Sertifikat, kvotasiz eksportga jo'natilishi mumkin bulmagan muhim va strategik ashyolar ro'yxatga kirgan tovarlar eksporti auditi va bu tovarlar uchun litsenziya mavjudligi nazorati. 3.Import muomalalari samaradorligi auditi. 4.Muomalalar bo'yicha ichki nazorat tizimini baholash va audit dasturi. Import tovarlarini soliqqa tortish. Import tovarlari bo'yicha kreditorlik qarzlarining realligini aniqlash. Bojxona qiymati yoki baho qiymati o'rtasidagi farq va o'xshashlik tomonlari, bu tushunchalarning iqtisodiy ahamiyati. | 2 | 2 |
| 21. | | 5.Bojxona qiymati auditining maqsadi va boj qiymatini aniqlash usullari. 6.Bojxona auditini o'tkazishning asosiy va muhim usullari. 7.Bojxona auditi bo'yicha xalqaro tajriba. 8.Valyuta muomalalarining auditi. Valyuta muomalalari nazorati bo'yicha nazorat testlarini tuzish. Valyuta mablag'laridagi debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha kurs farqlari hisobining auditi. | 2 | 2 |



Scanned with CamScanner

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 22. | Moliyaviy natijalar auditi uslubiy muammolari | 1.Asosiy qonun va meyoriy hujjatlar.<br>2.Auditorlik tekshiruv maqsadi va vazifalari.<br>3.Tekshiruv uchun axborot manbalari.<br>4.Auditorlik tekshiruv uchun reja va dastur. | 2 | 2 |
| 23. | | 5.Moliyaviy natijalar harakati bilan bog'liq muomalalar operatsiyalarni tekshirish uslubiyoti.<br>6. Moliyaviy natijalarning moliyaviy hisobi amaliyotida mavjud bo'ladigan ayrim xatoliklar. | 2 | 2 |
| 24. | Auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash | 1.Auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisobotini tayyorlash tartibi.<br>2. Auditorlik xulosalarining tarkibi va ular mazmuni. 3.Qo'shimcha sharh berilmagan shartsiz auditorlik xulosalari. Izohsiz auditorlik xulosalari va uning salmog'i.<br>4.Qo'shimcha sharh berilmagan, tushuntirish qismi mavjud yoki shakli o'zgargan auditorlik xulosalari. | 2 | 2 |
| 25. | | 5.Noaniqlik holati va mavjud sharoitida tushuntirish berish. 6.Hisob prinsiplari o'zgargandagi tushuntirish abzatsi.<br>7.Tushuntirish abzatsi talab qiladigan tartib va taqqoslashlarga ta'sir qiluvchi holatlar.<br>8.Standart hamkorlikdagi auditorlik xulosasi.<br>9.Qo'shimcha sharh berilmagan xulosalar taqdim etishdan chetlatish shartlari.<br>10. Fikr berishdan bosh tortish hollari. | 2 | 2 |
| 26. | Operatsion audit asoslari va ekologik auditni tashkil qilish | 1.Operatsion audit haqida tushuncha.<br>2.Ishlab chiqarish bosqichi auditi va operatsion audit vazifalarini ajratish.<br>3.Operatsion auditda iqtisodiy tahlil usullarini qo'llash. 4.Operatsion auditni o'tkazish. 5.Mijozning axborotlar bazasini yetarliligi va ishonchliligini baholash.<br>6.Operatsion audit natijalarini umumlashtirish. | 2 | 2 |
| 27. | | 7.Ekologiya auditining maqsadi, vazifalari va mohiyati. Ekoaudit ko'rinishlari, bosqichlari, usullari va mezonlari.<br>8. Ekoaudit jarayonida ichki nazorat tizimini baholash. 9.Ekoaudit rejasi va dasturini tuzish. Obyektlar auditi jadvalini ishlab chiqish. Sanoat korxonalarida tabiatni muhofaza qilish xarajatlari auditi. 10.Ekoaudit natijalarini umumlashtirish tartibi. | 2 | 2 |
| 28. | Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimlari va audit ish sifati nazorati | 1.Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimlarini (NMAT) tashkil qilish zarurati. 2.Auditorlik tizimining funksional va ta'minlovchi qismlari.<br>3.Tashqi auditning maslahat berish funksiyalari.<br>4.Maslahat beruvchi va nazorat auditining subyektlari, maqsadlari va vazifalari. | 2 | 2 |
| 29. | | 5.Konsultativ maslahatchi audit. Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimlarining o'xshash strategiyalari.<br>6.Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimlarini tashkil qilish variantlari va jarayonlarini modellashtirish. 7.O'zbekiston NMATni tashkil qilish muammolari.<br>8.Auditorlar ish sifatini nazorat qilish tizimi va testlarini ishlab chiqish. | 2 | 2 |



Scanned with CamScanner

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 30. | Kompyuter tizimi muhitida audit o'tkazish | 1.Kompyuter tizimi muhitida audit o'tkazish va auditning kompyuterli metodi. 2.Ma'lumotlarni elektron tahlil qilish sharotida audit. 3.Kompyuter tizimini audit aspektlariga ta'siri (rejalashtirish, ichki nazorat tizimini o'rganish, xo'jalik muammolari). 4.Avtomatlashtirish darajasini baholash. 5.Nazorat-maslahatchi auditorlik tizimlarini (NMAT) tashkil qilish zarurati. 6.Tashqi auditning maslahat berish funksiyalari. 7.Konsultativ maslahatchi audit. 8.Nazorat maslahatchi auditorlik tizimlarining o'xshash strategiyalar. | 2 | 2 |
| 3-semestr bo'yicha JAMI | | | 30 | 30 |
| O'quv yili bo'yicha umumiy soat | | | 60 | 60 |

## VI. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar[1]

O'quv rejaga ko'ra fandan 3-semestrda kurs ishi rejalashtirilgan bo'lib, kurs ishida magistrlarning oliy o'quv yurtida tahsil olishi davomida to'plagan nazariy va amaliy bilimlari yuzaga chiqadi, magistrning nazariy bilimlari bilan qurollanish darajasi, malaka va ko'nikmasi ilmiy-ishlab chiqarish masalalarini yechishga qay darajada qo'llay olishi orqali namoyon bo'ladi.

### Kurs ishi mavzulari

1. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy nazorat tizimi va uni takomillashtirish
2. Auditning xalqaro standartlari asosida uzoq muddatli aktivlar auditi
3. Joriy aktivlar yuzasidan ichki nazorat tizimini baholash va ish sifatining auditi
4. Ijara muomalalari auditi
5. Investitsiyalar auditini tashkil etish va o'tkazish
6. Kapital qurilish opreatsiyalari auditi
7. Tugallanmagan kapital qurilish ishlarining auditi
8. Qimmatli qog'ozlar qiymati amortizatsiyasining auditi
9. Ishlab chiqarish zahiralari auditni o'tkazishda inventarizatsiya usullarini qo'llash
10. Auditorlik tanlovlar - tavakkalchilik va muhimlikning asosiy bqg'ini sifatida
11. Korxonalar integratsiyalashuvi sharoitida ishlab chiqarish bosqichi auditini tashkil qilish
12. Ishlab chiqarish xarajatlari auditini xo'jalik javobgarligi markazlari bo'yicha olib borish muammolari
13. Auditining xalqaro standartlar asosida mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash tashkil qilish va o'tkazish
14. Integratsiyalashgan korxonalarda ishlab chiqarish bosqichi bo'yicha nazorat samaradorligini baxolash
15. Maqsadli tushumlar va grantlar sarflanishi operatsiyalari auditi
16. Tugallanmagan ishlab chiqarish auditi va uni inventarizatsiya qilish muammolari
17. Ishlab chiqarish jarayoni boshqaruv hisobi va ichki nazorati samaradorligini baholash
18. Davr xarajatlari auditini o'tkazishda nazoratning mantiqiy usullarini qo'llash muammolari
19. Daromadlar bosqichi yuzasidan audit maqsadlarini belgilash
20. Debitorlik va kreditorlik qarzlari auditi
21. Turli mulk shakllari mavjud sharoitda sotish, tushum va daromad auditini tashkil qilish muammolari
22. Pul mablag'larining bankdan tashqari aylanishini kamaytirishda auditorlik nazoratining o'rni
23. Turli mulkchilik sharoitida kassa va bank muomalalari auditining xususiyatlari va o'tkazish tartibi
24. Tovarlar ulgurji savdosida pul mablag'lari kirimi va chiqimi auditi
25. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot auditi

[1] Kurs ishini bajarish va himoya qilish tartiblari alohida uslubiy ko'rsarmada yoritilgan.



Scanned with CamScanner

26. Valyuta schyoti bo'yicha auditorlik tekshiruvi
27. Valyuta mablag'laridagi debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha kurs farqlari hisobining auditi
28. Eksport muomalalari auditini o'tkazish
29. - Import muomalalari samaradorligi auditi
30. Subsidiya va a'zolik badallari audit iva ularni umumlashtirish
31. Bojxona qiymati auditi
32. O'zbekistonda bojxona auditini rivojlantirish istiqbollari
33. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditini o'tkazish muammolari
34. Soliqqa tortish bazasini aniqlashning auditi
35. Ekologik auditni tashkil qilish muammolari
36. Operatsion auditda iqtisodiy tahlil usullarini qo'llash
37. Auditorlik firmalarining foydalilik darajasi va auditorlar mehnat unumdorligini aniqlash
38. Operatsion audit natijalarini umumlashtirish
39. O'zbekistonda ekoauditni tashkil qilish va rivojlantirish muammolari
40. Davlat ekologik nazorati tarkibida ekoaudit o'tkazish
41. Nazorat maslahatchi auditorlik tizimlarini tashkil qilish variantlari va jarayonlarini modellashtirish

## VII.Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimi va unda auditning tutgan o'rni
2. Asosiy vositalar harakati bilan bog'liq muomalalar auditi uslubiy muammolari
3. Nomoddiy aktivlar harakati bilan bog'liq muomalalar auditi uslubiy muammolari.
4. Uzoq muddatli investitsiyalar bilan bog'liq muomalalar auditi uslubiy muammolari.
5. Tovar-moddiy zaxiralari harakati bilan bog'liq muomalalar auditining uslubiy muammolari
6. Pul mablag'lari harakati bilan bog'liq muomalalar auditi
7. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish, tannarx hisoblash va sotish bilan bog'liq muomalalar auditining uslubiy muammolari
8. Hisob-kitob, kredit va boshqa qarzlar bo'yicha muomalalar auditining uslubi
9. Xodimlar bilan mehnatga xaq to'lash bo'yicha muomalalari auditining uslubi
10. Yeksport-import va valyuta muomalalari auditi
11. Korxona ustav, qo'shilgan va rezerv kapitallari auditining uslubiy muammolari
12. Moliyaviy natijalar auditi uslubiyotining muammolari
13. Auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash
14. Operatsion audit asoslari va yekologik auditni tashkil qilish
15. Nazorat maslahatchi auditorlik tizimlari
16. Kompyuter tizimi muhitida audit o'tkazish
17. Audit ish sifati nazorati

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrlar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarnı bajarish, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarish hamda yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish talab qilinadi..

Fanning yakuniy bahosi uchta yo'nalishdagi baholarga asoslanadi:

(1) Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (10%).

Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, magistrantlar darslar boshlanishidan oldin onlayn o'quv materiallari bilan tanishgan bo'lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma'ruza



Scanned with CamScanner

va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.

(2) Auditoriyadagi mashg'ulotlar (10%)

Har semestrda haftada o'tilgan ma'ruzalar asosida jami 15 tadan amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. Har bir amaliyot mag'ulot bo'yicha topshiriqlar keyingi dars mashg'ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Amaliy mashg'ulotda berilgan topshiriqlarni bajarish (10%).

(3) Yakuniy baholash (80%) (Baholash turi ("Test" (kompyuterda)), vaqti (jadval asosida), baholash mezonlari (har bir magistrantga alohida variant bo'yicha 30 ta savoldan iborat test beriladi va har bir to'g'ri javobga 1 ball belgilanadi))

**Talabalar bilimini baholash tizimi**

A (93-100)
A-(86-92)
B+(82-85)
B (77-81)
B-(71-76)
C+(67-70)
C (60-66)
C-(56-59)
D (55-50)
E (0-49)

## ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBAALARI

### Asosiy adabiyotlar


**O'zbekiston Respublikasi Qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.– T.:O'zbekiston, 2017- 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. // Xalq so'zi gazetasi.2016 yil 14 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. // www.lex.uz.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari**

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmoni.
5. "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 02.02.2017 yildagi PQ-2753-son, kuchga kirish sanasi 03.02.2017.
6. "Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob- kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 02.02.2017 yildagi PQ-2751-son, kuchga kirish sanasi 13.02.2017.
7. "Mahsulot (ish hizmat)larni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. 1999 yil 5 fevral. Lex.uz. portali.
8. "Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartiblari to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyrug'i.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

9. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T., 2017. 104 b.
10. Mirziyoyev SH.M. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent. O'zbekiston. 2017.


### Asosiy maxsus adabiyotlar



Scanned with CamScanner

11. SH.I.Ilxomov Amaliy audit. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 443 b.

12. Ш. Файзиева, О.Машарипова, М.Хожаева. Практический аудит. Учебное пособие. - Т.: "Иктисодь- Молия", 2015 -208 с.

13. B.Xamdamov, SH.Ilxomov, N.Karimov, Masharipov O., M.Xojiyev. Amaliy audit. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. - 272 b.

## Qo'shimcha adabiyotlar

14. Tuychiyev A., Qo'ziyev I., Ashrapov A., Sheraliev I., Axmedov I. Audit. Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 620 b.

15. Kuziyev I., Tuychiyev A., Xojiyev M., Yakubov M. Vnutrenniy audit. "Iqtisod-Moliya", 2018 g. - 232 str.

## Axborot manbalari

16. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti

17. www.uza.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti

18. www.internetindicators.com - Iqtisodiy indikatorlar internet veb-sayti

19. www.ziyonet.uz - "Ziyonet" axborot ta'lim tarmog'i.